

3-TOM, 3 - SON
MAQSUD SHAYXZODA VA XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATI

Toshkent davlat transport universiteti
Komilov Akrom Oybek o'g'li

Annotatsiya: Maqolada Maqsud Shayxzodaning she'riyatidagi rang- baranglik jilosi, so'z qo'llash usullari va mohirona o'xshatishlardan foydalanib yaratgan o'lmas ijodiy faoliyati tarannum qilingan.

Kalit so'zlar:Qardoshlik, ohangrabolik, bobo tili, turkiy til, qarindosh tillar, o'zbek, turkman, ozarbayjon, doyi, tog'a.

Maqsud Shayxzoda ikki buyuk xalqning sevikli farzandi, qalami o'tkir, adabiyotlarning turli janrlarida barakali ijod qilgan, shoir dramaturg, olim, tarjimon va ajoyib pedogog.

Maqsud Shayxzoda tug'ilgan makoni Ozarbayjon, ijod bulog'i O'zbekistonda ko'z ochgan va o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan adiblardandir.Bu baxt nashidasi shoirning sheri satrlarida ham o'z o'rniga ega. Maqsud Shayxzoda o'z xotiralarida sheriya uning hayotiga alifboni tanimasdan oldin kirib kelganligini va besh yoshida bo'ri bilan olmaxon haqida 8-10 misradan iborat masal to'qiganligini xotiralaydi.Maqsud Shayxzoda serqirra ijodkor, uning ruboiylari, ballada, doston va badiy asarlari kitobxonlar kalbida muxirlanib qolgan. Biz shoirning she'rlarini o'qir ekanmiz, satrlarga jo bo'lgan ohangrabolik, chuqur ma'no, so'zlarning xalq tiliga yaqinligi, soddaligi o'quvchilar qalbidan joy olganligini tushinib yetamiz. Maqsud Shayxzodaning "qardoslik ruboiylari"ni o'qir ekanmiz shunday shoh satrlardan bahra olamiz.

Oldimizda turgan kunlar
Bular-sinoqli kunlar,
Bular-sinoqli kunlar.
Bir raqamdir yozilibdir
Xazardan oltoygacha
O'rta osiyo xaritasi
Ustida
Partiyaning leninchi
Madan kalami bilan:
Yigirma besh
Million



3-TOM, 3 - SON

Olti yuz ming
Toza paxta.

“Jaloliddin Manguberdi”ning to‘la matni birinchi marta Bokudaozarbayjon tilida Shayxzodaning ikki jildlik saylanmasida bosilib chiqarildi.

Faqatgina 1988 yildagina Jaloliddin Manguberdi” birinchi marta o‘zbek tilida yozuvchining “Boqiy dunyo” degan kitobida to‘la bosilib chiqarildi. Maqsud Shayxzodaning xalqimiz tarixiga, jumladan, Jaloliddin Manguberdi taqdiri va kurashiga odilona yondoshganligi, haqiqatni himoya qilganligi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov imzosi bilan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 24-sentabrdagi “Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash to‘g‘risida” qarori ham yana bir bor tasdiqlaydi. Shayxzodaning yozuvchilik shuuri va ijodkorlik zehning o‘tkirligi yana bir bor isbotlandi. Maqsud Shayxzodaning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan yana bir ulkan hissasi “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidir. Tragediya 1964- yili yozildi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. Maqsud Shayxzoda yuksak ilm egasi edi. Ayniqsa, u o‘zbek mumtoz adabiyotini chuqur bilar edi. 1941 yilda Toshkentda nashr etilgan “General shoir” to‘plami adabiyotshunos olim Shayxzodaning Navoiy ijodiga oid ilmiy maqolalaridan tashkil topgan. Navoiy she‘riyatining bu chuqur ilmiy tadqiqi navoiyshunoslikda hamisha alohida o‘rin egallab qoladi. Shayxzoda Navoiy mahoratini, uning san‘atkorligini teran o‘rganishni boshlab bergan o‘tkir tadqiqotchi edi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Maqsud Shayxzoda Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)da, Toshkent Davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent Davlat pedagogika universiteti)da uzoq yillar davomida o‘zbek adabiyoti tarixidan o‘qigan ma‘ruzalari, maxsus kurslari o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha eng qimmatli darslar edi.

Maqsud Shayxzoda do‘stlikni yuqori bohalagan adiblardan edi. Zamondoshi va maslakdoshi G‘afur G‘ulom xotirasiga bag‘ishlab “G‘agurga xat” She‘rida satrlarni o‘qiymiz.

G‘afur G‘ulom va o‘lim-qovushmagan gap,
Misoli qish va rayhon, dasht buloqlar
G‘afur G‘ulom va sukut-ikki yov lashkar,
Nuqul urishagotgan dushman taraflar.

Mahorat nuqtai nazardan shoirning she‘riy satrlarini o‘qir ekanmiz, satrlarda ohang o‘zining yuksak nuqtasiga ko‘tarilgan. Maqsud Shayxzodaning butun ijodi



3-TOM, 3 - SON

chuqur siyosiy publitsistik ruh bilan to'la. Uning she'riy, dramatik asarlari qaysi mavzuga bag'ishlangan bo'lmasin, zamona bilan hamohangdir. Shuning uchun ham shu tipdagi ijodkorning bevosita publitsistika janrida xizmat qilishi tasodifiy hol emas. Uning zo'r badiiy janrga ega bo'lgan publitsistik maqolalari va nutqlari bu iste'dodli adib ijodining mazmundorligi va rang-barangligidan yorqin nishonadir. Iste'dodli shoir mohir tarjimon ham edi. U jahon adabiyoti mumtoz shoirlarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda katta xizmat qildi. Jumladan, Shekspirning "Hamlet" va "Romeo va Juletta" asarlari o'zbek drama teatrlari sahnasida Shayxzoda tarjimasida sahnalashtirildi. Pushkin, Lermontov, Bayron she'rlarini o'zbek o'quvchisiga ilk bor taqdim etgan shoirlar avlodi ichida Shayxzoda ham bor. Shoir mahoratining o'sishiga, uning jahon adabiyoti klassiklarining asarlarini g'oyat sevib o'rgangani, ularning boy badiiy tajribasini ustalik bilan o'zlashtirgani ham sabab bo'ldi. U G'arbiy Yevropa va rus adabiyotini mukammal bilgani holda o'zining Vatan adabiyotini - Sharq she'riyati merosini ham to'la o'rgangan edi."

Maqsud Shayxzoda sharq adabiyoti tarixi masalalariga chuqur qiziqqan. Sharq adabiyotida mavjud asarlar ularning janr xususiyatlari, badiyat masalalarini yetarlicha taqdid qilgan. O'zbek mumtoz adabiyotining eng ilg'or va taraqqiyotparvar nomoyondalaridan ko'p narsa o'rgangan Maqsud Shayxzoda badiiy mahorat va adabiy janrlar takomillashgani ko'rinadi. U mumtoz she'riyatdagi mehnatsevarlik, ilm-fanga ixlos, vafo, sadoqat, mardlik va do'stlik kabi yuksak bashariy fazilatlarni betakror badiiy usullar, ma'naviy va ruboriy kabi lirik janrlarni o'rganib, ularni o'z ijodiy ish jarayonida muvaffaqiyatli ravishda tadbqiq qila boshlagan. Maqsud Shayxzoda she'riyatidagi lirik tur va janrlarni boyitish borasida ham barakali ijodiy mehnat qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Maqsud Shayxzoda ikki xalq she'riyati cho'qqisini egallagan shoirlardandir. O'zbek xalqi doimo shunday ijodkor borligidan faxrlanadi. O'ylaymizki, keyingi avlodlar ham Maqsud Shayxzoda she'riyati gulshanida gullardan miriqib ifor oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/maqsud-shayxzoda-1908-1967/>.
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
3. Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda (ma'rifiy-biografik roman). – Toshkent, "Sharq", 2009 yil.
4. N. R. Amanlikova. (2022, December). MAQSUD SHAYXZODA VA ODIL



3-TOM, 3 - SON

YOQUBOVNING TARIXIY ASARLARIDA MIRZO ULUG'BEK OBRAZI
TALQINI. In Conference Zone (pp. 263-265).

5. Shayxzoda Maqsud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent,
„Nihol“, 2008. 28 b. (o'zbekcha)

6. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983.

7. Amanlikova, N. (2020). SO'Z MULKINING SULTONI ALISHER
NAVOIYNING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI.
<http://www.openscience.Uz/>.

8. Amanlikova, N. (2020). THE IMPORTANCE OF FORMING THE
THINKING ACTIVITY OF STUDENTS IN THE EDUCATION PROCESS.
<http://www.eprajournals.Com/>. <https://doi.org/DOI:10.36713/epra2013>

9. Amanlikova, N. (2020). SHAYXZODA – MOHIR TARJIMON. “Transport”.

10. Amanlikova, N. (2022). The role and place of distance learning in education.
International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE).
<https://doi.org/DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.1110>.

